

Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли «2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисидажи фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг Молиявий барқарорлик шархи. 2022 йил I ярим йиллик. www.cbu.uz
3. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel III: International framework for liquidity risk measurement, standards and monitoring*. Switzerland: Bank for International Settlements. 2021.
4. Yensu Joseph, Hadrat M. Yusif, Emmanuel Tetteh, George Asumadu, Daniel A. Atuilik. *Main Determinants of Banks' Stability: Evidence from Commercial Banks in Ghana*. *Journal of Finance and Economics*. 2021. Vol. 9. no. 2. P. 42-52.
5. Farag M., Harland D. & Nixon D. *Bank capital and liquidity*. *Bank of England Quarterly Bulletin*, 2013, 53 (3), 201-215.
6. Синки Дж. *Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии и финансовых услуг*. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – 648 с.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли фармони. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. // Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.
8. Прокофьев Е.Н. *Ликвидность банковского сектора России в условиях нестабильности: тенденции формирования и последствия для экономики*. // Вестник Северо-Осетинского государственного университета им. К.Л.Хетагурова. 2019. № 2. С. 130-136.
9. Абдуллаизанова К.З., Калачева Е.А. *Анализ состояния ликвидности банковского сектора России*. // Научные исследования XXI века. 2020. № 1(3). С. 112-118.
10. Mukherjee T. and Pana E. *The distribution of the Capital Purchase Program funds: Evidence from bank internal capital markets*. *Financial Markets, Institutions & Instruments*, 2018, 27 (4), pp. 125-143.
11. Berdiyarov B. *Uzbekistan in Banking Practice: Opportunities to Use Foreign Experience to Ensure Liquidity and Solvency of Commercial Banks*. // ICFNDS 2021: The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. December 2021, pp 378-392. <https://doi.org/10.1145/3508072.3508141>.
12. Chaloumis C. *Theoretical Definition of the Velocities of Escaped Savings With Than of Financial Liquidity*. SSRN Electronic Journal. 2019.
13. Абдуллаева Ш. Банк иши. Ўқув-қўлланма. Тошкент молия институти. – Т., 2003. – 312 бет.
14. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг маълумотлари асосида ҳисобланди. www.cbu.uz
15. "Асакабанк" АЖнинг жамланма баланс ҳисоботлари.
16. "Алоқабанк" АТБнинг жамланма баланс ҳисоботлари.
17. Jumaev Nadir Hosiyatovich, Rizaev Nurbek Kadirovich, & Isaev Fakhreddin Ikromovich. (2023). *ORGANIZATION OF TURKIC STATES: INTEROPERATION AND ACCOUNTING SYSTEM*. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 13, 116-129. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/245>
18. Isaev, F. (2021). Мол-мулкни солиқча тортишни тақомиллаштириш. *Iqtisodiyot Va Innovatsion Texnologiyalar*, (6), 326–333. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/12224
19. Исаев, Ф. (2022). РЕСУРС СОЛИҚЛАРИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ. *Iqtisodiyot Va ta'lifim*, 23(5), 171-176. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/742>



KREDIT BOZORIDA GAROV TA'MINOTIDAN FOYDALANISH ZARURATI VA XORIJ TAJRIBASI

Abdikarimova Dinara Rustamhanovna -
Toshkent molija instituti, PhD, dotsent

doi https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a20

Annotatsiya. Mazkur maqolada kredit bozorida garov ta'minotidan foydalanish zaruhati va xorij tajribasini tadqiq qilishda turli iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan. Kredit bozorida garov ta'minotini boshqarish bosqichlari va mexanizmi, shuningdek, kredit bozorida garov ta'minoti sifatida foydalaniuvchi aktivlar tahlil qilingan. Tahlillar asosida tegishli xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar: kredit bozori, garov, baholash, garov ta'minotini boshqarish, garov ta'minotini boshqarish mexanizmi.

НЕОБХОДИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАЛОГА НА КРЕДИТНОМ РЫНКЕ И ЕЕ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Абдикаримова Динара Рустамхановна -
Ташкентский финансовый институт, PhD, доцент

Аннотация. В статье изучены исследования различных экономистов о необходимости использования залога на кредитном рынке и его зарубежный опыт. Анализируются этапы и механизм управления обеспечением на кредитном рынке, а также активы, используемые в качестве залога на кредитном рынке. На основе анализа формируются соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: кредитный рынок, залог, оценка, управление залогом, механизм управления залогом.

THE NECESSITY OF USING COLLATERAL IN THE CREDIT MARKET AND ITS FOREIGN EXPERIENCE

***Abdikarimova Dinara Rustamxanova -
Tashkent Institute of Finance, PhD, associate professor***

Abstract. This article studies researches of various economists on the necessity of using collateral in the credit market and its foreign experience. The stages and mechanism of collateral management in the credit market, as well as the assets used as collateral in the credit market are analyzed. Relevant conclusions and proposals are formed based on the analysis.

Keywords: credit market, collateral, assessment, collateral management, collateral management mechanism.

Kirish. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kredit bozorlarida aksariyat hollarda muammoli kreditlar bilan bog'liq masalalar ko'zga tashlanadi. Shu jumladan, mamlakatimizda ham tijorat banklarida muammoli kreditlar uchrashi va ularni hal qilish bilan bog'liq muammolar kuzatilishini qayd etib o'tishimiz lozim. Rivojlangan mamlakatlardan amaliyotiga e'tibor qaratsak, bu mamlakatlarda kredit bozorlarida kreditlarning qoplanishi bilan bog'liq muammoning oldini olish maqsadida garov ta'minotini boshqarish mexanizmini ishlab chiqqanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu amaliyotdan samarali foydalanish nafaqat kreditlarni qoplash bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarining oldini oladi, balki mamlakatimizda baholash faoliyatini rivojlanitirishga ham yordam beradi. Shu sababli kredit bozorida garov ta'minotidan foydalanish zarurati va xorij tajribasini o'rganish dolzarblik kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Kredit bozorida garov ta'minotidan foydalanish bo'yicha ko'plab xorijiy olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, J.Atta-Mensah fikricha, "garov ta'minoti qarz oluvchilar va qarz beruvchilar bir xil ma'lumotga ega bo'lishiga qaramasdan, kredit munosabatlarida muhim rol o'ynaydi. Bunday sharoitda garov ta'minoti qarz beruvchiga loyihaning riskliligi va moliyalashtirish istiqbollarini to'g'risida ma'lumot beradi. Garovning ikki turi mavjud. Birinchisi, ichki garov deb ataladi, unda qarz oluvchi garov sifatida moliyalashtirish uchun loyihadagi aktivdan foydalanadi; agar defolt sodir bo'lsa, qarz beruvchi loyihaga egalik qiladi. Ikkinci turi tashqi garov deb ataladi: loyihada foydalanilmagan aktivlar garov sifatida joylashtiriladi" [1].

H.Bester ham o'z tadqiqotlarida kredit bozorlarida garov ta'minotiga alohida to'xtalib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, "kredit bozorlarida garov ta'minotining tez-tez ishlatalishiga sabab sifatida salbiy tanlov va ma'naviy zararning oldini olishni keltirish mumkin. Banklar turli xil darajadagi risklarga ega qarz oluvchilarni saralash uchun kreditlar to'plamini taklif qilishi mumkin. Kreditni to'lamaslik ehtimoli past bo'lgan investorlar garovga qo'yildigan talablarni qabul qilish orqali bank kreditlarini olish mumkin. Xuddi shunday masalalar ma'naviy zarar yuzaga kelishi bilan bog'liq risklar bilan ham sodir bo'ladi. Garovga qo'yiladigan talablar rag'bat-

lantirish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi, chunki yuqori garov past riskli loyihalarni tanlashga majbur qiladi" [2].

G.Jiménez, V.Salas, J.Saurina kredit munosabatlari bo'yicha tadqiqotlarida garovning ahamiyatiga urg'u berishgan. Ularning fikricha, "qarz oluvchilar o'zlarining boyliklarini ko'paytiradi va garov sifatida foydalanish uchun ko'proq mol-mulkka egalik qiladi. Shuningdek, kredit bozori raqobatining parallel o'sishi kredit olish imkoniyatini pasaytirmaydi" [3].

N.Garvin, D.Hughes, J.Peydroning ta'kidlashicha, "garov ta'minotining kreditga ta'sirini aniq hisob-kitob qilish qiyin, chunki chakana kredit bozorlari qarz oluvchilarning boshqa xususiyatlari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan likvidsiz garov ta'minotlariga egalik qilishi mumkin" [4].

J.P.Ninimaki o'z tadqiqotlarida garov qiymatining qarz oluvchini rag'batlantirishi va qarz beruvchining daromadiga qanday ta'sir qilishini o'rgan-gan [5].

J.Mensah kreditorlar va qarz oluvchilar bir xil ma'lumotlarga ega bo'lgan va uning kelajakdag'i qiy-mati haqida shunga o'xshash fikrlarga ega bo'lgan muhitda garovning rolini o'rgangan. Mazkur olim tomonidan tadqiqotlarda opsiyon-narxlash usullari dan foydalanilgan bo'lib, kafolatlangan kredit shartnomasida opsiyon shartnomalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Uning fikricha, qarz beruvchining qarz oluvchiga avans bermasligini, garovning bozor qiymatidan yuqori bo'lgan ssudani va garovning bozor qiymatining oshishi bilan kreditlar taklifi ortib boradi. Garov ta'minoti qiymatining o'zgaruvchanligi, foiz stavkasi va garov(aksiyalar)ning dividend stavkasi o'sishi kredit taklifini mustaqil ravishda susaytiradi" [6].

Mahalliy olimlar ham mazkur masalar bo'yicha izlanishlar olib borganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xususan, N.Artikov, Z.Taylaqovaning fikricha, "xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank kreditlari bo'yicha qo'yilgan ko'chmas va ko'char mulklarni baholash tartibi boshqa xo'jalik subyektlarining buyurtmalari uchun amalga oshiriladigan baholash jarayonidan deyarli farq qilmaydi. Bank kreditlari garov ta'minotini baholash jarayonini tashkil etish va amalga oshirish bosqichlari belgilanishi zarur. Bunda bankning vakolatli xodimi ishtiroti juda muhim hisoblanadi. Chunki kreditning to'lovi bilan

bog'liq muammo vujudga kelganda, garov hisobidan ushbu riskni bartaraf etish juda zarur" [7]. Mazkur tadqiqotchilar bank kreditlarida garov bilan bog'liq risklarni kamaytirishda yuqori likvidli aktivlarga e'tibor qaratish lozimligini ham alohida ta'kidlashgan.

Sh.Xoliqulovning fikriga ko'ra, "garov ta'minotini haqqoniy va oqilona baholash, kredit ta'minoti sifatida olingan mol-mulkni zarur hollarda soitish, bank kreditlari ta'minotiga qo'yilgan garovni baholashda yuqori malakali va tajribali baholovchilarni jalg etish, bank kreditlari ta'minotini baholash bo'yicha tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish bilan bog'liq muammolar tahlil etilmoqda" [8].

Yuqoridaagi tadqiqotchilarning fikr-mulohazarini inobatga olgan holda ta'kidlashimiz lozimki, bugungi kunda kredit bozorlarida kreditlarning qoplanishini ta'minlash uchun garov ta'minotini boshqarish to'g'ri tashkil etilishi lozim.

Mulkning qiymatini baholash uchun, odatda, uchta qiymat yondashuvi qo'llaniladi: bozor yonda-shuvi, daromad yondashuvi va xarajat yondashuvi. Ushbu metodologiyalarni qo'llash orqali kreditni kafolatlash jarayonida quyidagi qiymatlar paydo bo'ladi: bazaviy qiymat, bozor qiymati, investitsiya qiymati va ipoteka krediti qiymati (MLV). Mazkur jarayonda Yuqorida ta'kidlangan garov va uni baholash bilan bog'liq jihatlar e'tiborga olinishi zarur.


Qarz beruvchining qarz oluvchi haqidagi ma'lumotlari to'liq bo'limganda (ma'lumotlar asimetriyasi), yuzaga keladigan qiyinchiliklarni (agent-

Tadqiqot metodologiyasi. Kredit bozorida garov ta'minotidan foydalanish zarurati va xorij tajribasini o'rghanishda ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash, analiz, sintez kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Kredit bozorida garov ta'minotini boshqarishning ahamiyatiga butun dunyo bo'ylab alohida e'tibor qaratilmoqda. Kreditlarning garov ta'minotini samarali boshqarishda mulknii baholash juda muhim, chunki u kreditning qiymat koefitsiyenti(LTV)ga bevosita ta'sir qiladi. Garchi LTV koefitsiyenti, odatda, kredit qiymatini garovga qo'yilgan mulkning o'zi qiymatiga bog'laydigan uy-joy krediti bilan bog'liq bo'lsa-da, u to'g'ridan-to'g'ri kreditdan foyda olish yoki olmaslikdan qat'i nazar, xilma-xil ko'chmas mulk kafolatlarini o'z ichiga olgan kredit tahlillarida qo'llaniladi. LTV koefitsiyenti qarz beruvchi uzoq muddatli kredit riskini aniqlash uchun foydalanishi mumkin bo'lgan eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. LTVni topish formulasi quyidagicha:

$$LTV = \frac{\text{Jami kreditlar hajmi}}{\text{Kredit garovi bilan bog'liq bo'lgan mulkning baholangan qiymati}} \quad (1)$$


lik muammolar) yumshatish uchun qarz shartnomalarida garov qo'llaniladi. Banklar, odatda, qarz oluvchilardan kreditni baholashda bunday muammolarni bartaraf etish uchun ko'chmas mulk kabi moddiy aktivlarni garovga qo'yishni talab qiladi. Aksincha, yirik texnologiya firmalari firmalarning kredit qobiliyatini yaxshiroq baholash uchun katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. Ushbu imkoniyatlar kredit bozorlarida asimmetrik axborot muammolarini hal qilishda garovning ahamiyatini kamaytirishga yordam berishi mumkin.



1-rasm. Garovni boshqarishni tashkil etish bosqichlari [9]

Garovni boshqarishni tashkil etishda, avvalo, ikki tomon o'zaro shartlarni kelishishi, garovni baholash va narxlashni amalga oshirish zarur. Shuningdek, aktivlarni tanlash va optimallashtirish orqali garovni samarali boshqarishni tashkil etish

lozim. Garov bitimini tuzishga ham alohida e'tibor qaratish lozim, so'ngra foizlarni hisoblash va to'lovlar masalasini hal qilish lozim. Shuningdek, umumiy ish jarayonini tashkil etishni belgilab olish ham muhimdir (1-rasm).



2-rasm. Xorijiy amaliyotda garov ta'minotini boshqarish mexanizmi [10]

2-rasmga e'tibor qaratish orqali xorijiy mammatlarda garov ta'minotini boshqarish mexanizmi haqida tasavvur paydo qilishimiz mumkin. Garov ta'minotini boshqarishning bir qator bosqichlari mavjud bo'lib, bunda ishtirokchilarning rolini ham ta'kidlashimiz lozim.

Xalqaro amaliyotga e'tibor qaratadigan bo'lak, riskni pasaytirish va muammoli kreditlar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida kredit bozorida garov ta'minotidan foydalanish masalasi katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda kredit bozorida garov ta'minoti sifatida bir qator aktivlar foydalanilayotganligini kuzatishimiz mumkin (1-jadval). 1-jadvalda 2018-2022-yillarda choraklar kesimida kredit

bozorlarida foydalanilgan aktivlar bo'yicha ma'lumotlar aks ettirilgan. Ko'rishimiz mumkinki, davlat qimmatli qog'ozlari, mahalliy hukumat qimmatli qog'ozlari, turli ko'rinishdagi obligatsiyalar, sotiladigan va sotilmaydigan turli aktivlar, turli omonatlar garov sifatida foydalanilgan. Yevropa Ittifoqi kredit bozorlarida garov sifatida foydalanilayotgan aktivlarning jami qiymatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu ko'rsatkich 2018-yil boshida 1,6 trln. yevrodan ortiq bo'lgan bo'lsa, 2022-yil 3-chorak yakuniga kelib, deyarli 2,7 trln. yevroni tashkil etgan. Bundan ko'rindaniki, mazkur ko'rsatkich 5 yilga yaqin vaqt ichida deyarli 65 % o'sishga erishgan.

1-jadval

Yevropa Ittifoqi kredit bozorlarida garov sifatida foydalanilayotgan aktivlar tahlili (mlrd. yevro) [11]

	Yillar		Davr	Davlat qimmatli qog'ozlari	Mahalliy hukumat qimmatli qog'ozlari	Kafolatlanmagan bank obligatsiyalari	Qoplangan bank obligatsiyalari	Korporativ obligatsiyalar	Aktivlar bilan taminlangan qimmatli qog'ozlar	Boshqa sotiladigan aktivlar	Sotib bo'lmaydigan qimmatli qog'ozlar	Kredit da`volari	Muddatli va naqd pul omonatari	Jami:
2018	2019	2020												
1-chorak	259,9	65,1	93,5	330,2	61,0	364,9	50,7	396,5	396,4	0,1	1 621,9			
2-chorak	253,3	60,9	94,2	328,2	59,5	367,6	47,2	389,9	389,8	0,1	1 600,9			
3-chorak	241,6	56,1	93,5	339,5	59,9	367,4	43,1	395,2	394,9	0,3	1 596,3			
4-chorak	219,8	56,6	87,8	358,4	58,0	358,9	39,4	378,3	378,2	0,1	1 557,1			
1-chorak	218,1	56,1	78,5	367,0	54,8	362,7	41,5	383,6	383,6	0,1	1 562,5			
2-chorak	220,9	56,7	78,2	374,4	54,1	360,2	37,5	383,3	383,2	0,1	1 565,4			
3-chorak	225,2	59,6	81,2	380,8	54,2	359,1	36,8	379,7	379,7	0,0	1 576,8			
4-chorak	215,0	54,3	77,4	379,5	51,7	352,8	34,5	377,8	377,8	0,0	1 542,9			
1-chorak	256,6	59,5	83,8	408,1	54,9	348,2	40,2	384,9	384,9	0,0	1 636,1			
2-chorak	372,6	81,4	137,8	575,9	98,7	380,1	55,3	672,0	672,0	0,0	2 373,8			
3-chorak	401,4	88,1	149,4	610,3	85,7	394,6	56,4	783,8	783,8	0,0	2 569,7			
4-chorak	382,7	90,1	145,1	629,1	78,3	387,4	57,7	824,9	824,9	0,0	2 595,3			
1-chorak	406,1	93,4	139,2	644,6	74,8	384,2	56,7	857,4	857,4	0,0	2 656,5			
2-chorak	444,7	95,5	143,0	694,4	79,7	394,5	59,6	884,2	882,5	1,7	2 795,6			
3-chorak	452,1	90,1	141,8	717,7	80,7	401,5	59,0	898,4	895,9	2,4	2 841,2			
4-chorak	435,2	88,0	141,3	717,7	76,8	405,8	56,8	917,1	914,9	2,2	2 838,8			
1-chorak	417,9	84,3	136,4	710,7	74,8	413,2	55,7	920,8	918,3	2,5	2 813,9			
2-chorak	397,5	79,7	130,1	712,9	71,9	409,2	56,6	927,4	925,0	2,4	2 785,2			
3-chorak	390,2	73,7	123,8	694,3	63,7	391,9	57,8	898,0	896,0	2,1	2 693,4			

Kredit bozorlarida garov sifatida foydalanilgan aktivlar tarkibini kuzatadigan bo'lsak, eng keng foydalaniladigan aktivlar sifatida sotib bo'lmaydigan qimmatli qog'ozlar, davlat qimmatli qog'ozlari va hokazolarni sanab o'tishimiz mumkin (1-jadval).

Xulosa va takliflar. Kredit bozorida garov ta'minotidan foydalanishning zarurati va xorij tajribasini o'rganish asosida quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin.

Birinchidan, kredit bozorlarida garov ta'minotidan foydalanish qarz oluvchi uchun foiz Stavkalarini pasaytirishga xizmat qiladi. Agar qarz oluvchi kreditni olish uchun garov sifatida ishlatalishi mumkin bo'lgan aktivlarga ega bo'lsa, bank unga kreditni pastroq foiz stavkasida taklif qilishi mumkin.

Ikkinchidan, kredit bozorlarida garov ta'minotidan foydalanish mavjud kredit mahsulotlari ko'lамини kengaytiradi. Chunki ko'plab banklar kafolatsiz asosda kredit berishdan manfaatdor emas, shu sababli kredit mahsulotlari cheklangan bo'ladi.

Garovni ta'minlash orqali esa qarz oluvchi yanada qulayroq shartlarga ega bo'lgan kredit mahsulotlari tanlovinci amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, xalqaro amaliyotda banklar tomonidan qarz oluvchiga nisbatan garovsiz kreditlar uchun kredit qiymatining 10 %dan 30 %gacha depozit qo'yish talabi qo'yildi. Bank kreditlarida garov ta'minotini qo'llash amaliyoti natijasida esa qarz oluvchi mazkur talabni bajarishi shart bo'lmaydi.

To'rtinchidan, milliy amaliyotda bank kreditlarida garov ta'minotini qo'llash amaliyotini kengaytirish zarur. Garov sifatida qo'yiladigan aktivlar tarkibini kengaytirish, xususan, qimmatli qog'ozlardan garov sifatida foydalanish imkoniyatlari kengaytirilishi lozim.

Beshinchidan, tijorat banklarida garov ta'minotini boshqarish mexanizmini ishlab chiqish va samarali yo'lga qo'yish zarur. Aks holda, muammoli kreditlar hajmi oshadi va bu tijorat banklarining moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Joseph Atta-Mensah. *The Role of Collateral in Credit Markets.* // *Journal of Mathematical Finance*, Vol.05. No.04(2015), Article ID:60899, pages 13. https://www.scirp.org/html/1-1490328_60899.htm
2. Helmut BESTER. *THE ROLE OF COLLATERAL IN CREDIT MARKETS WITH IMPERFECT INFORMATION.* // *European Economic Review* 31 (1987) 8877899. North-Holland. P. 13. [https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0014292187900055-main.pdf&valck=1](https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0014292187900055/pdf?md5=9b36b3996a3f5f91ff2ff697cfdc121d&pid=1-s2.0-0014292187900055-main.pdf&valck=1)
3. Gabriel Jiménez, Vicente Salas and Jesús Saurina. *CREDIT MARKET COMPETITION, COLLATERAL AND FIRMS' FINANCE.* // *Documentos de Trabajo* No. 0612, 2006. Pages 28. <https://repositorio.bde.es/bitstream/123456789/6867/1/dt0612e.pdf>
4. Nicholas Garvin, David W Hughes and José-Luis Peydró. *The Role of Collateral in Borrowing.* // *Economic Research Department, Reserve Bank of Australia; Massachusetts Institute of Technology; Imperial College London, ICREA-Universitat Pompeu Fabra-CREI-BarcelonaGSE, CEPR Research Discussion Paper* 2021-01. P. 46. <https://www.rba.gov.au/publications/rdp/2021/pdf/rdp2021-01.pdf>
5. Juha-Pekka Niinimäki. *Collateral in credit rationing in markets with asymmetric information.* // *The Quarterly Review of Economics and Finance*, Volume 68, May 2018, Pages 97-102. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1062976916301077>
6. Joseph Atta-Mensah. *The Role of Collateral in Credit Markets.* // *Journal of Mathematical Finance*, Vol.5. № 4, November 2015.
7. Artikov N., Taylaqova Z. *Bank kreditlari garov ta'minotini baholash mexanizmiga yangicha yondashuvlar.* // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, Volume 1, Issue 3. – 370 b.
8. Xoliquulov Sh. *Bank kreditlari garov ta'minotini baholashni takomillashtirish yo'llari.* // *Euroasian Journal of Academic Research*. Volume 2, Issue11, October 2022. – 652 b.
9. <https://www.federalreserve.gov/econres/notes/feds-notes/collateralized-loan-obligations-in-the-financial-accounts-of-the-united-states-20190920.html> – AQSh Federal Rezervi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari
10. Collateral Annual 2021. // Securities Finance Times. <https://www.securitiesfinancetimes.com/sltimes/Collateral-Annual-2021.pdf>
11. <https://www.ecb.europa.eu/paym/coll/charts/html/index.en.html> – Yevropa Markaziy banki rasmiy veb-sayti ma'lumotlari. Jumaev Nadir Hosiyatovich, Rizaev Nurbek Kadirovich, & Isaev Fakhreddin Ikromovich. (2023). *ORGANIZATION OF TURKIC STATES: INTEROPERATION AND ACCOUNTING SYSTEM.* British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 13, 116–129. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/245>
12. Isaev, F. (2021). *Мол-мulkни солиққа тортышни такомиллаштириши. Iqtisodiyot Va Innovatsion Texnologiyalar*, (6), 326–333. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/12224
13. Исаев, Ф. (2022). *РЕСУРС СОЛИҚЛАРИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ.* Iqtisodiyot Va ta'lim, 23(5), 171–176. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/742>